# BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA FORSAYT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika yo‘nalishi 3-kurs talabasi
**Murodova Gulnora O‘ktam qizi**
+99893-476-68-09 gulnora15@gmail.com,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika yo‘nalishi 3-kurs talabasi
**Nurmuxammadova Gulnoza Muxidin qizi**
+99894-475-56-05 nurmuhammadova76@gmail.com,
Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi
**Sotbarov Atabek Asilbek o‘g‘li**
sotbarovatabek@gmail.com,+99833-606-81-79

**Annotatsiya:** Maqolada bo‘lajak pedagoglarda forsayt kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari nazariy jihatdan asoslab beriladi. Zamonaviy ta’lim tizimida kelajakni prognozlash, strategik fikrlash va innovatsion faoliyatni rejalashtirish qobiliyatiga ega pedagoglarni tayyorlash zarurati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida forsayt kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik, tashkiliy va psixologik shartlar tizimi ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** forsayt kompetensiyasi, pedagogik shart-sharoit, pedagogik ta’lim, innovatsion metodlar, strategik fikrlash, bo‘lajak o‘qituvchi.

**Аннотация:** В статье теоретически обосновываются педагогические условия развития форсайт-компетенции у будущих педагогов. На основе научных источников анализируется необходимость подготовки педагогов, обладающих способностью прогнозировать будущее, стратегически мыслить и планировать инновационную деятельность в современной системе образования. В результате исследования разработана система дидактических, организационных и психологических условий, способствующих формированию форсайт-компетенции.

**Ключевые слова:** форсайт-компетенция, педагогические условия, педагогическое образование, инновационные методы, стратегическое мышление, будущий учитель.

**Abstract:** This article provides a theoretical justification of the pedagogical conditions for developing foresight competence in future teachers. Based on scientific sources, it analyzes the need to train educators who are capable of forecasting the future, thinking strategically, and planning innovative activities within the modern education system. As a result of the study, a system of didactic, organizational, and psychological conditions that contribute to the formation of foresight competence has been developed.

**Keywords:** foresight competence, pedagogical conditions, teacher education, innovative methods, strategic thinking, future teacher.

**KIRISH**

Zamonaviy ta’lim tizimi kelajak ehtiyojlariga moslashuvchan, innovatsion va strategik fikrlaydigan pedagoglarni tayyorlashni talab etadi. Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt va global ta’lim makonining kengayishi pedagogik faoliyatning mazmuni va shakliga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, bo‘lajak pedagoglarda forsayt kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Biroq mazkur kompetensiya o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Uni rivojlantirish uchun maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar tizimi zarur. Pedagogik shart-sharoit deganda, ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydigan didaktik, metodik, tashkiliy va psixologik omillar majmui tushuniladi.[1]

Pedagogika nazariyasida shart-sharoit tushunchasi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida talqin qilinadi. Ilmiy tadqiqotlarda pedagogik shart-sharoitlar:

ta’lim mazmuni,
o‘qitish metodlari,
pedagog va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir,
ta’lim muhiti
kabi komponentlar orqali izohlanadi.

Foresight tadqiqotlari bilan shug‘ullanuvchi olimlar kelajakni prognozlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun interaktiv, muammoli va tadqiqotga asoslangan o‘qitish muhimligini ta’kidlaydi. Futures studies sohasidagi ilmiy manbalarda scenario, Delphi, trend-tahlil kabi metodlar ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi zarurligi qayd etilgan.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda esa bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirish uchun:

reflektiv o‘qitish,
loyiha asosida o‘qitish,
kasbiy vaziyatlarni modellashtirish
kabi metodlar samarali ekani ko‘rsatilgan.

**METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik tajribalarni umumlashtirish, nazariy modellashtirish, tizimli yondashuv

**Tadqiqot obyekti** – pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayoni.

**Tadqiqot predmeti** – forsayt kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar tizimi.

Tadqiqot natijasida forsayt kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari quyidagi guruhlarga ajratildi:Didaktik shart-sharoitlar ta’lim mazmuni va o‘qitish metodlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quv dasturlariga kelajak ta’limi va prognozlashga oid mavzularni kiritish, scenario va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish.[2]

[1] Abdullayeva N. Pedagogik shart-sharoitlar nazariyasi.

[2] A.A.Sotbarov “The role of pedagogical technologies in creating a modern educational environment” «Science and innovation» 2023 y 212-214 b6. Miller, R. (2018). *Transforming the Future: Anticipation in the 21st Century*.

Forsayt kompetensiyasini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonini mos ravishda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

loyiha va tadqiqot faoliyatiga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil etish

innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun moddiy-texnik baza yaratish

pedagogik amaliyotda kelajak kasblari bilan bog‘liq vazifalarni qo‘llash

Talabalarda kelajak haqida mustaqil fikrlash va prognoz qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit zarur. Bu quyidagilar orqali ta’minlanadi:

ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti

talabalarning tashabbuskorligini rag‘batlantirish

reflektiv faoliyatni tashkil etish

Metodik ta’minotning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi forsayt kompetensiyasini rivojlantirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli:

foresight metodlariga oid o‘quv qo‘llanmalar yaratish

pedagoglar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish

zarur deb topildi.

**MUHOKAMA**

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, forsayt kompetensiyasini rivojlantirish faqat bitta metod yoki fan orqali emas, balki kompleks pedagogik shart-sharoitlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Didaktik, tashkiliy va psixologik omillarning uyg‘unligi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Bu natijalar kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi bilan mos keladi, chunki kompetensiya shaxsning turli faoliyat sohalarida integrativ rivojlanishini talab qiladi.

**XULOSA**

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Forsayt kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik ta’lim tizimida maxsus tashkil etilgan shart-sharoitlarni talab etadi. Ushbu kompetensiya samarali shakllanishi uchun didaktik, tashkiliy, psixologik va metodik omillar o‘zaro uyg‘un holda amal qilishi lozim. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida foresight yondashuvini joriy etish bo‘lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorligini oshiradi.

Forsayt kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimlashtirildi. Ular didaktik, tashkiliy, psixologik va metodik guruhlarga ajratildi.

Pedagogik ta’limda foresight yondashuvini joriy etishning model ko‘rinishidagi tavsiyalari ishlab chiqildi. Pedagogik OTMlarda foresight laboratoriyalarini tashkil etish, o‘quv jarayoniga scenario va trend tahlil metodlarini kiritish, pedagogik amaliyot dasturiga kelajak ta’lim muhitini modellashtirish elementlarini qo‘shish

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi Ozbekistonda erkin va farovon yashaylik”. – T.: “O‘zbekiston”, 2023.- 37 b.
2. Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent: O‘zbekiston, 2021, 47-bet
3. Sh.M. Mirziyoyev. ”Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz”. “O‘zbekiston” Toshkent – 2016. 14 b.

Routledge.

4. Zimnyaya I.A. Klyuchevie kompetensii – novaya paradigma rezultata sovremennogo obrazovaniya. // Kompetensii v obrazovanii: opit proektirovaniya: sb. nauch. tr. / Pod red. A.V. Xutorskogo. M.: INEK, 2007. – 286 s.
5. Panfilova V.M., Panfilov A.N., Gazizova A.I. Formirovanie for-sayt-kompetensii budushego uchitelya // Sovremennie naukoemkie texnologii. –2019. –№7. –S.210-214; URL:https://top-technologies.ru/ru/article/view? id=37615
6. Raximova D.O. Forsayt menejment fanini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Qarshi “Intellekt” nashriyoti. 2022. -122 b.
7. A.A.Sotbarov “The role of pedagogical technologies in creating a modern educational environment” «Science and innovation» 2023 y 212-214 b6. Miller, R. (2018). *Transforming the Future: Anticipation in the 21st Century*. Routledge.
8. Cohen, L., Manion, L., & Morrison, K. (2018). *Research Methods in Education*. Routledge.
9. Miller, R. (2018). *Transforming the Future: Anticipation in the 21st Century*. Routledge.